

## BOSHLANG’ICH TA’LIMDA INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Raxmatova Zulfiyaxon Alisher qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411037>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarga inklyuziv ta’lim berishning maqsad va vazifalari, alohida ehtiyojga ega bolalarni jamiyatga integratsiya qilish hamda bu boradagi muammolar, ularga yechimlar batafsil ko’rib chiqiladi. Boshlang’ich ta’limda pedagoglarni inklyuziv ta’limga targ’ib qilish.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются цели и задачи предоставления инклюзивного образования детям с ограниченными возможностями, вопросы интеграции детей с особыми образовательными потребностями в общество, а также подробно анализируются существующие проблемы и пути их решения. Также освещается необходимость популяризации инклюзивного образования среди педагогов в системе начального образования.

**Annotation:** This article examines the goals and objectives of providing inclusive education to children with disabilities. It also discusses the integration of children with special educational needs into society, as well as the problems in this field and possible solutions. In addition, the importance of promoting inclusive education among teachers in primary education is highlighted.

**Kalit so’zlar:** Inklyuziv ta’lim, tarbiya, integratsiya, reabilitatsiya, ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, tug’ma nuqsonli bolalar, teng huquqlilik, maxsus ehtiyojlar.

**Ключевые слова:** Инклюзивное образование, воспитание, интеграция, реабилитация, образование, дети с ограниченными возможностями, дети с врождёнными нарушениями, равноправие, особые потребности.

**Keywords:** Inclusive education, upbringing, integration, rehabilitation, education, children with disabilities, children with congenital impairments, equality, special needs.

Inklyuziv ta’lim — bu har bir bolaning (xoh sog’lom, xoh nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo’lgan bo’lsin) umumiy ta’lim muassasasida birga o’qishi, uning ta’limga bo’lgan ehtiyojlari hisobga olingan holda qo’shimcha yordam va sharoitlar yaratilishidir. Bu yondashuv jamiyatda teng huquqlilik, hurmat va bolalarning individual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda 1996-yildan boshlab maxsus ta’limga muqobil bo’lgan yangi yo’nalish maktablari - inklyuziv maktablar shakllana boshladi. Amalga oshirilgan loyihalarda turli soha vakillari, hamjamiyat ishtirokchilarining yakdil sa’y-harakatlari natijasida erishilgan yutuqlar alohida e’tiborga muhtoj bolalar abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, ulardagi mavjud muammoning erta korreksiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuvlariga samarali ta’sir ko’rsatayotgani kuzatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo’lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq nogironligi bo’lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ishlarning samarali yechimlarini nazarda tutayotganini kuzatamiz.

2021-yildan boshlab O‘zbekiston Ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga ko‘ra, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining bir qismida maxsus ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun inklyuziv sinflar tashkil etilmoqda. 2023–2024 o‘quv yilida 500 dan ortiq umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim yo‘lga qo‘yilgan, unda 1 000 dan ziyod bola ta’lim olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonida ham mamlakatimizda umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida inklyuziv ta’limni rivojlantirish belgilangani fikrimizning yorqin dalilidir.

Nogironligi bor bolalarni o‘qitishning 4 xil usuli bor:

1. Eksklyuziya – ta’limdan tashqari bo‘lgan nogironligi bor bolalar (oddiy maktablardan tashqarida nuqsoni bor bolalarni o‘qitish).

2. Segregatsiya – nogironligi bor bolalar uchun ixtisoslashgan maxsus maktab va maktab-internatlar ( nuqsonli bolalarni oddiy maktablardan tashqarida alohida guruhlarda o‘qitish).

3.Integratsiya – Nogironligi bor bolalar uchun umumta’lim maktablaridagi maxsus sinflar (nuqsoni bor bolalarni oddiy maktablar ichidagi guruhlarda o‘qitish).

4. Inklyuziya – Nogironligi bo‘lgan bolalar bilan umumta’lim maktablarida (nuqsonli bolalarni oddiy bolalar bilan birga o‘qitish).

Shuningdek, 2025–2026 o‘quv yili uchun qaror asosida har bir tuman va shaharda eng kamida bitta inklyuziv ta’lim talablariga javob beradigan maktab tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bu yondashuv inklyuziv maktab tarmog‘ini kengaytirish maqsadida olib borilmoqda.

2026-2027 o‘quv yilidan boshlab ayrim hududlarda inklyuziv resurs markazlariga asoslangan sinflar yoki maktablar (inclusive-correctional) tajriba tariqasida faoliyat ko‘rsatadi. Bu markazlarda o‘quvchilarning individual dasturlar asosida qo‘shimcha sozlash va yordam olib boriladi.

Bugungi kunda maxsus nomlanadigan markazlar bo‘lmasa-ham, quyidagilar inklyuziv ta’lim amaliyotida faol:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari — inklyuziv sinflar faoliyat ko‘rsatmoqda yoki jamiyatdagi talabga qarab yo‘lga qo‘yilyapti.

2. Resurs markazlar asosidagi inklyuziv-to‘liq maktablar — tajriba tariqasida joriy etilishi rejalashtirilgan.

3. Maktabgacha ta’lim muassasalari ham ba’zan kichik yoshdagi bolalarni qamrab olish uchun inklyuziv tajriba o‘tkazilmoqda.

Hozircha O‘zbekiston bo‘ylab barcha maktablarda inklyuziv ta’lim bir xilda yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa-da, davlat siyosati har bir hududda bitta inklyuziv maktab ochishga yo‘naltirilgan.

Har bir bola uchun ta’lim imkoniyatini kengaytiradi. Jamiyatda tenglik va hurmat muhitini mustahkamlaydi. O‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va o‘qituvchilarning individual yondashuvi, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuv O‘zbekiston ta’lim tizimida kengayib borayotgan strategik yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. BMTning “Nogironlar huquqlari tog‘risida”gi Konvensiyasi (UNCPRD) 2006-yil 13-dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 05.01.2023 y. <https://lex.uz/docs/-6445145>

3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi ORQ-673-sonli “Talim togrisidagi” Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori.